

## **ONA TILIDA NUTQ SO'ZLASH KO'NIKMASINI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA METODIK TAVSIYALARNING AMALIYOTDA QO'LLANILISHI**

*Jakbarova Mahliyo Ibrohimjonova,  
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining Kattaqo'rg'on  
filiali o'qituvchisi*

*Annotatsiya: maqolada nutq so'zlash ko'nikmasini rivojlantirish bo'yicha metodik tavsiyalarning amaliyotda qo'llanilishi, o'quvchini ravon va ta'sirchan nutq so'zlashga o'rgatish uchun unga didaktik ahamiyati katta bo'lgan nasriy matnlarni yod oldirish va yoddan bexato aytib berish mashqini tashkil etish, o'quvchilarning nutq so'zlash ko'nikmalarini bo'yicha mavjud holatni tahlil qilish, o'qituvchilarning mazkur jarayonga tayyorgarlik darajasini aniqlash haqida fikr yuritilgan.*

*Kalit so'zlar: tajriba-sinov, ta'kidlovchi tajriba, nutq so'zlash, matn, hikmatli so'z, ibora, maqol, fonetik mashqlar, sintaktik mashq va topshiriqlar, lingvistik mashq va topshiriqlar, shakllantiruvchi tajriba*

## **ПРИМЕНЕНИЕ НА ПРАКТИКЕ МЕТОДИЧЕСКИХ РЕКОМЕНДАЦИЙ ПО РАЗВИТИЮ РЕЧЕВЫХ НАВЫКОВ НА РОДНОМ ЯЗЫКЕ**

*Джакбарова Махлиё Ибрагимджонова,  
Преподаватель Каттакурганского филиала Самаркандского  
государственного университета имени Шарафа Рашидова*

*Аннотация: в статье рассматривается применение методических рекомендаций по развитию речевых навыков на практике, организация упражнения на запоминание текстов в прозе, имеющих дидактическое значение для студента, с целью научить его говорить бегло и выразительно, организация упражнения на рассказывание наизусть, анализ существующих состоянии речевых навыков студентов,*

*Ключевые слова: тест на опыт, выделение опыта, говорение, текст, мудрое слово, фраза, пословица, фонетические упражнения, синтаксические упражнения и задания, лингвистические упражнения и задания, формирующий опыт*

## **PRACTICAL APPLICATION OF METHODOLOGICAL RECOMMENDATIONS FOR THE DEVELOPMENT OF SPEECH SKILLS IN THE NATIVE LANGUAGE**

*Jakbarova Makhliyo Ibragimjonova,  
Lecturer of the Kattakurgan branch of the Sharaf Rashidov Samarkand State  
University*

*Abstract: the article discusses the application of methodological recommendations for the development of speech skills in practice, the organization of exercises for memorizing prose texts that have didactic significance for a student in order to teach him to speak fluently and expressively, the organization of exercises for reciting by heart, the analysis of the existing state of students' speech skills.*

*Keywords: experience test, experience selection, speaking, text, wise word, phrase, proverb, phonetic exercises, syntactic exercises and tasks, linguistic exercises and tasks, formative experience*

Kirish. O'quvchi kelgusi hayotida qaysi sohada bo'lmasin muvaffaqiyat qozonmoqchi bo'lsa, albatta, bunga nutqi orqali sazovor bo'ladi. U ijtimoiy hayotda faoliyat ko'rsatar ekan u jamoa bilan muloqotga kirishish, ko'pchilikka o'zi fikrini etkazib berish, hisobot berish, da'vat qilish kabi ko'nikmalarga ega bo'lishi zaruratga aylanadi. Shu ma'noda, umumta'lim maktablaridan boshlab, o'quvchilarda nutq so'zlash ko'nikmasini rivojlantirish asosiy masalalardan biri hisoblanadi. Ta'lim tizimining umumiy o'rta ta'lim bosqichida o'quvchilarni ona tili o'quv predmeti asosida mustaqil ishlashga, o'z fikrini og'zaki va yozma shakllarda ravon va ta'sirchan ifodalay olish ko'nikmalarini shakllantirish bugungi ta'lim oldida asosiy vazifa sifatida turibdi. Zero, o'quvchilarni ma'rifatli, bir so'z bilan aytganda barkamol shaxs sifatida tarbiyalashga alohida ahamiyat berilishi talab etilmoqda.

F.I.Buslaev bu borada shunday yozadi: «birinchi va eng muhimi, nutq shakllari bilan ifodalanadigan narsalarni tushunish va ularni to'g'ri yo'l bilan ishlatishdan iborat amaliy qobiliyatni rivojlantirishdir, ya'ni o'qimishli odamlar aytganidek, og'zaki va yozma mashqlar orqali o'quvchida suhbat va yozuvga xos nutq shakllarini osonlik bilan tushunish ko'nikmasini hosil qilamiz»[2, 56-59].

Bugungi kunning eng muhim masalasi – ona tili ta'limini hayotga yaqinlashtirish, amaliy ahamiyatini kuchaytirishdir. Ona tili orqali o'quvchi tafakkurida olamning lisoniy manzarasi, milliy madaniyatlar shakllanadi. Agar ona tili oddiy o'quv predmeti emas, qadriyat sifatida o'qitilsa, o'quvchilarda o'z-o'zidan teran tafakkur va milliy g'urur shakllanadi. Shunda ona tilini o'rganishga o'quvchilarda katta qiziqish uyg'onadi. Ona tili orqali o'quvchilar milliy mentalitetni, hayotni, xalqning madaniy merosini o'rganishlari kerak. Albatta, bu pragmatik xarakterdagi o'quv topshiriqlari ishlab chiqish orqali amalga oshadi. Ona tili mashg'ulotlarida o'quvchilar savol va topshiriqlar asosida tilning amal qilish qoidalarini o'rganadilar. Mashq tarkibida berilgan gaplar, matnlar o'quvchining lug'at boyligini oshirishga xizmat qiladi, biroq ular ustida qanday ish olib borish hali muammoligicha qolmoqda. Ona tili darslarida anglash, fahmlash, nutq so'zlash, insho yozishni o'rgatibgina qolmay, balki topshiriqlar orqali o'quv adabiyotlariga yo'naltirilsa, ona tilining jonli va tabiiy til ekanligiga ham ishonch hosil qilishadi [4, 12-13-b.].

Bu jarayonda yosh avlodning jamiyat rivojiga mos bilim, ko'nikma va malakalar sohibi bo'lishi muhimligini ta'kidlash lozim. Jumladan, umumta'lim maktablari o'quvchilarida ona tili fani, xususan, adabiy talaffuzni ko'nikma sifatida shakllantirish, shuning barobarida ularni mustaqil, ijodiy fikrlashga o'rgatish, jozibali og'zaki va yozma nutqning asosi bo'lgan so'z boyligini oshirish bugungi ona tili ta'limining mazmuni va maqsadini tashkil etadi. Uni amalga oshirish ona tili ta'limi oldiga zamonaviy pedagogik texnologiyadan foydalanish, innovasion loyihalar yaratish muammosini ham qo'yimoqda.

Shu jihatdan olib qaraganda umumiy o'rta ta'lim yo'nalishida tadqiq qilinishi lozim bo'lgan muhim masalalar tizimida o'quvchilarda unli tovushlarni o'qitishga oid o'quv materiallar asosida mustaqil, ijodiy fikrlash hamda o'z fikrini nutq sharoitiga mos holda to'g'ri va ravon ifodalash malakasini shakllantirish hamda takomillashtirishning pedagogik tizimini ishlab chiqish, uni tatbiq etishning yangi metodik yondashuvlarini joriy etish va amaliyotda sinab ko'rish muhim pedagogik muammodir.

1. Tayyorlovchi bosqich. Mazkur tajriba-sinov ilmiy tadqiqotning eng sermahsul usuli bo'lib, u kuzatishlar jarayonida tug'ilgan g'oya, taqdim etilgan tavsiya va ishlab chiqilgan o'quv topshiriqlarining samaradorlik darajasini belgilab beradi.

Tajriba-sinov ishlarining asosiy maqsadi ham o'quvchilarda ona tili o'quv

predmeti, xususan, nutq so'zlashga o'rgatish uchun adabiy talaffuzni ko'nikma sifatida shakllantirish, shuning barobarida ularni mustaqil, ijodiy fikrlashga o'rgatish, jozibali og'zaki va yozma nutqning asosi bo'lgan so'z boyligini oshirish ko'nikmasini shakllantirishning didaktik imkoniyatlarini o'rganish va mazkur jarayonga zamonaviy usullarni tatbiq etish bo'yicha ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqishdir.

Tajriba jarayonida o'quvchilarning darslik materiallarini o'zlashtirish imkoniyatlari aniqlandi va bu jarayonda ona tili o'quv predmeti o'qituvchilarning unli tovushlarni o'qitish bo'limini tushuntirish yuzasidan kasbiy-pedagogik tayyorgarlik darajalari aniqlandi. O'quvchilarning anketa, taqdim etilgan matn hamda mavzular asosida bilim darajalari aniqlandi. Yana quyidagilar ham ma'lum bo'ladi:

- o'quvchilarning adabiy talaffuz ko'nikmalari aniqlandi;
- o'qituvchilarning ona tili darslari, xususan, fonetika o'qitish bo'limini o'qitishda darslik va boshqa ko'rgazmali vositalardan foydalanishdagi yutuq va kamchiliklar aniqlandi;
- qiziqarli, noan'anaviy, ijodiy izlanishga asoslangan mashq va topshiriqlarga nisbatan o'quvchilarning munosabatini aniqlash hamda fikrlarni umumlashtirish maqsadida anketa-savol javoblari o'tkazildi.

2. Ta'kidlovchi tajriba-sinov bosqichida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish usul, shakl va vositalari aniqlanib, 5-11 sinfda qiziqarli, noan'anaviy ijodiy izlanishga asoslangan unli tovushlarni o'qitishga doir mashq va topshiriqlar asosida o'quvchilarda adabiy talaffuz hamda imloga oid ko'nikmalarni shakllantirish metodikasi ishlab chiqildi.

Ijodiy izlanishga asoslangan unli tovushlarni o'qitishga doir topshiriqlar, fonetik mashqlar orqali, avvalo, o'quvchining har bir nutq tovushini to'g'ri talaffuz qila olishiga, to'g'ri yoza olishiga, nasriy va she'riy matnlarni ifodali o'qiy olishiga, o'rta qo'yilgan muammo haqida shaxsiy fikrini og'zaki va yozma shakllarda mazmunli ifodalay olishiga e'tibor qaratildi. Zero, sanab o'tilganlarga nisbatan o'quvchida ko'nikma shakllantirish bugungi kundagi eng dolzarb va muhim pedagogik muammolardan biri hisoblanadi. Shuning uchun 5-11 sinf o'quvchilarida ona tili darslari orqali ijodiy fikr mahsulini nutq vaziyatiga mos ravishda to'g'ri qo'llash malakalarini shakllantirish talab etiladi.

Tajriba-sinov ishlari jarayonida quyidagi ilmiy faraz tekshirib ko'rildi va o'z isbotini topdi:

- o'quvchilarda nutq so'zlash ko'nikmasini matn bilan ishlash orqali shakllantirish;
- adabiy talaffuzga o'rgatish jarayoni maxsus tadqiq etilib, undagi kamchiliklar, ularning sabablari aniqlanib, bartaraf etish yo'llari va omillari ishlab chiqildi;
- talaffuzi, imlosi qiyin bo'lgan tovushlarni o'rgatishning ahamiyati va didaktik imkoniyatlari anglangan holda metodik jihatdan to'g'ri tatbiq etildi;
- o'quvchilarga nutq so'zlashni o'rgatishning mazmuni, shakl, usul va vositalari ishlab chiqildi;
- o'quvchilarda ta'sirchan nutq so'zlash, o'z fikrini turli shakllarda to'g'ri va ravon ifodalay olish ko'nikmasini paydo qilishga yo'naltirilgan hamda samaradorlik darajasi aniqlangan ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqildi.

3. Shakllantiruvchi tajriba-sinov bosqichida ishlarining maqsadini amalga oshirish uchun quyidagi vazifalar bajarildi:

- o'qituvchilar ishlab chiqilgan ilmiy-metodik tavsiyalar bilan tanishtirildi;
- ishlab chiqilgan ilmiy-metodik tavsiyalar dars jarayoniga to'liq tatbiq etildi;
- olingan natijalarga ko'ra ishlab chiqilgan ilmiy-metodik tavsiyalar takomillashtirildi.

–5-11-sinf o‘quvchilarida nutq so‘zlash, so‘z zaxirasini boyitish, mustaqil ishlay olish ko‘nikmalarini shakllantirishning yoritilmagan qirralari aniqlandi va kelajakda olib boriladigan ilmiy tadqiqot ishlariga material bo‘la oladigan tavsiyalar berildi.

K.Mavlonova ona tili ta‘limining bugungi yondashuvlariga mos ravishda eng murakkab bo‘lib turgan matn ustida ishlash, uni o‘qiy olish, tushuna olish va, eng muhimi, matn yarata olish ko‘nikmalarini adabiyot fani bilan integrasiya qilgan holda rivojlantiruvchi o‘quv topshiriqlarini ishlab chiqdi[ 3].

Mazkur tadqiqot natijalaridan ham foydalanish mumkin. Tajribaning dastlabki kunlarida nazorat sinflaridan ham, tajriba sinflaridan ham yozma ishlar olinadi. Bizga ikkala guruhning ham darslarni o‘zlashtirish darajasi deyarli bir xil ekanligi ma‘lum bo‘ldi. «Ishonch haqida», «suvni tejash», «do‘stlarga tavsiya» kabi mavzular berilib, 30 daqiqa tayyorgarlik uchun vaqt belgilanadi.

Umumta‘lim maktabida olib borilgan tajriba-sinov jarayonida o‘quvchilar nutqida quyidagi kamchiliklar aniqlandi:

- nutqi quruq so‘zlardan iborat bo‘lib, boshqa badiiy tasviriy ifodalardan foydalanmagan;
- og‘zaki nutqida mahalliy til hisoblangan sheva elementlari sezilib turibdi;
- yozma nutqda, asosan, [o‘]-[u], [x]-[h], va [i]-[e] harflari imlosida xatoliklar bor;

– o‘quvchilarning lug‘at boyligi nutqiy talabga javob bermasligi hollari ham sezildi. Aslida, kishida so‘z zaxirasi nochor bo‘lsa, nutqida ko‘plab uslubiy xatoliklarga yo‘l qo‘yadi.

«Har bir mavzu bo‘yicha turli-turli mashqlar keltirilib, ular savodli yozish va talaffuz qilish hamda yozma nutqning turli uslublaridan to‘g‘ri va o‘rinli foydalanish tartibini o‘rganishda shu sohada zarur amaliy ko‘nikmalar hosil qilishga yordam beradi»[1]

O‘quvchilarda adabiy talaffuz va nutq so‘zlash ko‘nikmalari shakllanishida o‘qituvchilarning ta‘siri katta ekanligi barchaga ma‘lum. Umuman, darsni qanday tashkil qilish o‘qituvchining to‘plagan malakasiga bog‘liq. Umumta‘lim maktablarida unli tovushlarni o‘qitish o‘qitish bilan bog‘liq muammolarning bir uchi maktab o‘qituvchilariga ham borib taqalmoqda. Tajriba-sinov jarayonida shunday holatlarga duch kelindiki, ayrim o‘qituvchilar ona tili ta‘limidan ko‘zlangan asosiy maqsad nima ekanligi haqida aniq tasavvurga ega emas. Hatto tajribali o‘qituvchilar ham darsni interfaol usulda turli zamonaviy metodlarda qiziqarli tashkil eta olsalar-da, o‘quvchilarga ona tili fanidan, nutq so‘zlash bo‘yicha zarur ko‘nikma va malakalarni bera olmayapti. O‘quvchilarni darsga qiziqitira olish yaxshi, albatta, biroq shu qiziqitirish orqali o‘quvchini ijtimoiy hayotda doim asqotadigan bilim va malakalar bilan qurollantirish asosiy masala ekanligini doim esda tutish zarur. Ushbu holatning sababini aniqlash maqsadida maktab o‘qituvchilari orasida quyidagi savollar asosida anketa-so‘rov o‘tkazish maqsadga muvofiq:

1. Maktabda o‘quvchiga nutq so‘zlash bo‘yicha alohida mashg‘ulotlar olib boriladimi?

Javoblar(aynan keltiriladi.):

2. Nutq so‘zlash deganda nimani tushunasiz?
3. Sinfingizda nechta o‘quvchi berilgan mavzu bo‘yicha erkin nutq so‘zlay oladi?
4. O‘quvchilarga qanday nutqlar tayyorlash vaziflarini berasiz?
5. Yuqori sinf o‘quvchilarida ilmiy va rasmiy nutqlar tuzish bo‘yicha ham topshiriqlar beriladimi?
6. Publisistik nutq tayyorlash bo‘yicha o‘quvchiga qanday tavsiyalar berasiz?

7. O'quvchilarga nasriy matnlarni yodlatish to'g'rimi, uning qanday foyda zararli tomonlari bor?

8. Matn tanlashda qaysi mezonlarni hisobga olasiz?

9. O'quvchini mazmunli va ta'sirchan nutq so'zlashga o'rgatishning asosiy bosqichlari sizningcha qaysilar?

10. Nutq so'zlashda adabiy talaffuz muhimmi yoki fikr ifodalashning o'zi etarlimi?

Yuqorida keltirilgan javoblardan ko'rinib turibdiki, ona tili darslarini tashkil qiluvchi, o'quvchilarni tildan mohirona foydalanishga o'rgatuvchi mutaxassislar KTMD talablarini, ona tilidan DTS malaka talablari va, eng muhimi, ona tili ta'limining maqsadini aniq bilishmaydi.

O'quvchilarning nutq so'zlash ko'nikmasi qaydarajada ekanligini aniqlash maqsadida anketaga quyidagi savollarni kiritish mumkin:

1. Sizga oila davrasida, to'yda, anjumanda to'satdan so'z berib qolishsa, erkin nutq so'zlay olasizmi?

Javoblar(aynan keltirildi.):

2. Qaysi mavzularda qiynalmasdan erkin nutq so'zlay olasiz?

3. Jurnalist sifatida suhbatdoshga mantiqli savol bera olasizmi?

4. Siyosiy, ilmiy, badiiy, rasmiy va publisistik uslublardan qaysi birida nutq so'zlash siz uchun oson?

5. Siyosiy, ilmiy, badiiy, rasmiy va publisistik uslublardan qaysi birida nutq so'zlash siz uchun qiyin?

6. Qaysi mavzuda nutq so'zlashga tayyorlangansiz?

7. Hech bir ma'lumotdan foydalanmay necha minut nutq so'zlay olasiz? O'zingizni sinab ko'rganmisiz?

8. Qaysi tadbir, marosim, yig'in yoki anjumandagi nutqining atrofdegilarni ta'sirlantirgan?

9. Siz o'z nutqingizda maqol va aforizmlardan foydalanasizmi?

10. Badiiy asar, kinofilm, ko'rsatuv yoki eshittirishlarda kimning nutqi sizni eng ko'p ta'sirlantirgan? Nutq so'zlashda kimga ko'proq taqlid qilasiz?

Mazkur savollar o'quvchilarning nutq so'zlash bilan bog'liq muammolarini aniqlashga yordam beradi.

Savollarni keltirishning boisi shuki, ta'limning asosiy vositasi hisoblangan darsliklar mazmun-mundariyasi talab darajasida bo'lishi, o'quv materiallari ta'lim maqsadi ro'yobiga xizmat qila olishi shart, aks holda ayrim o'qituvchilarning tushunchasi o'zgarguncha, mohiyatni anglaguncha yosh avlod, davlat kutib turolmaydi. Darsliklardagi o'quv materiallari shunday tuzilishi kerakki, o'quvchini bilim olishga, mustaqil ishlashga avtomatik ravishda yo'naltirsin. Respublikaning markazdan uzoq, chekka tumanlarida faoliyat ko'rsatayotgan o'qituvchilarning saviyasi past ekanligi, asosan, darslik materiallaridan foydalanishni, darsliklar davlatning eng uzoq qishloqlariga (u erga ona tili o'qituvchilari etib bormagan bo'lishi mumkin) ham etib borishini inobatga olsak, barcha e'tiborni mukammal darslik yaratishga qaratish lozim bo'ladi.

«Ona tili» darsliklaridagi o'quv materiallarini o'rganish asnosida tuzilgan nutq so'zlashga oid mashq va topshiriqlarni amaliyotda sinashdan ko'zlangan asosiy maqsad quyidagilar edi:

– o'quvchilarda nutq so'zlashni o'rganishga bo'lgan qiziqishni orttirish;

– o'quvchilarda mustaqil ishlay olish, ijodiy yondashish, muntazam o'z so'z boyligini oshirib borish va shular zamirida o'z fikrini turli shakllarda to'g'ri va ravon

ifodalay olishiga erishish;

– o‘quvchini tavsiya etilgan mashq va torshiriqlarni bajarish jarayonida o‘z kuchiga, o‘zi mustaqil ishlay olishiga ishonitirish;

– o‘z nutqi orqali atrofdagilarga ta’sir ko‘rsata olish;

– nutq so‘zlashga doir mashq va topshiriqlar orqali, avvalo, o‘quvchining har bir nutq tovushini to‘g‘ri talaffuz qila olishiga, to‘g‘ri yoza olishiga, nasriy va she’riy matnlarni ifodali o‘qiy olishiga, o‘rtaga qo‘yilgan muammo haqida shaxsiy fikrini og‘zaki va yozma shakllarda mantiqli ifodalay olishiga erishish.

Xullas, ona tili darslari orqali o‘quvchida gapirish ko‘nikmasini rivojlantirish bo‘yicha ishlab chiqilgan metodik tavsiyalarni tajriba - sinovdan o‘tkazish tizimli amalga oshiriladi. Mazkur jarayonda ham savol, ham topshiriq, o‘rni bilan mashqlardan foydalanish zarur. Chunki o‘quvchi tilning tashuvchilari o‘z ona tillarida gapirishni oila davrasida uy sharoitida o‘rganadi. Maktabda o‘quvchida so‘zlash, nutq so‘zlash malakasini rivojlantirish zarur. O‘quvchini ravon va ta’sirchan nutq so‘zlashga o‘rgatish uchun unga didaktik ahamiyati katta bo‘lgan nasriy matnlarni yod oldirish va yoddan bexato aytib berish mashqini tashkil etish, bu jarayonda qaysidir tovushlarni ayta olmasa fonetik mashqlar, leksik mashqlar, orfoepik mashqlar taqdim etish kerak. Bunda, albatta, o‘quvchiga maqol, matal, ibora va aforizmlar yodlatish va ularni qatnashtirib gaplar tuzish bo‘yicha sintaktik mashqlar bajartirish mashg‘ulot samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdurahmonov G‘. Rustamov H. Ona tili. – T.: O‘qituvchi, 1995. – B. 3.
2. Буслаев Ф.И. О преподавании отечественного языка. 2-е изд. М., 1867.
3. Мавлонова К. Она тили фанини адабиёт фани билан бадий матн орқали интеграциялаб ўқитиш методикасини такомиллаштириш Пед. фанл. бўйича фал. док. (PhD)илм. дараж. олиш учун ёзилган дисс. автореферати. –Т.: 2019. -22 б.
4. Hamroyev G‘.H. Ona tilidan o‘quv topshiriqlari tuzish metodikasi. Monografiya. –Toshkent, Donishmand ziyosi, 2021. 157-b.
5. G‘ulomov A., Ne‘matov H. Ona tili ta’limi mazmuni. Ona tili o‘qituvchilari uchun qo‘llanma. –T.: O‘qituvchi, 1995. –B. 128.